

Kam ta'minlangan oilalar holidan xabar olindi



Kam ta'minlangan oilalar holidan xabar olindi

Tumanimizda "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati doirasida muqaddas Ramazon oyi kunlari va Hayit arafasida kam ta'minlangan oilalarning holidan xabar olinishida va ularga amaliy ko'mak ko'rsatilishida saxovatpesha hamyurtlarimiz salmoqli hissa qo'shishdi. Ayni ro'zai Ramazon kunlarida qilingan xayrli amallarning savobi ham katta bo'ladi.

Sarikanda mahalla fuqarolar yig'ini raisi Bahodirjon Safoev ham mahallaning kam ta'minlangan, ijtimoiy ko'makka mo'htoj oilalarga tashrif buyurib, mahalladolarini hayit bilan tabriklab, ularga sovg'a-salom ulashdi. Mahalla raisi tomonidan ehtiyojmand oilalarga oilalarga bir million to'rt yuz ming so'mlik go'sht va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi.



Shuningdek, mahalla raisi tomonidan Qal'a mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi ehtiyojmand oilalarga ham ehsonlar tarqatildi. Bu oilalarga 230 000 so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi.

